PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA TEXNIKUM BITIRUVCHISINING HAMKOR KORXONADAGI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLIGI: MAZMUNI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI

Ergashov Adham Akmalovich
Uzun tumani 3-son texnikumi
maxsus fanlar o'qituvchisi
adham.nur@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.23504619

Annotatsiya. O'zbekistonda professional ta'lim tizimini mehnat bozori talablari asosida takomillashtirish, texnikum bitiruvchilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ularni real ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda [1; 2]. Texnikumlar va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, dual ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotini ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashtirish bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Biroq bitiruvchining texnikumda egallagan bilim va ko'nikmalarini muayyan ishlab chiqarish sharoitida mustaqil qo'llay olishi bilan bog'liq tayyorgarlikning mazmuni va tarkibiy tuzilmasi ilmiy-pedagogik adabiyotda yetarlicha tizimlashtirilmagan. Mazkur holat texnikum bitiruvchisining hamkor korxonadagi kasbiy faoliyatga tayyorligini ilmiy jihatdan aniqlashtirish va uning tarkibiy komponentlarini belgilash zaruratini yuzaga keltiradi.

Kalit so'zlar: professional ta'lim; texnikum; texnikum bitiruvchisi; professionalitet; kasbiy faoliyatga tayyorlik; kasbiy kompetensiya; hamkor korxona; ish beruvchi; dual ta'lim; ishlab chiqarish amaliyoti; motivatsion komponent; kognitiv komponent; faoliyat-amaliy komponent; refleksiv komponent; mehnat bozori.

READINESS OF A TECHNICAL COLLEGE GRADUATE FOR PROFESSIONAL ACTIVITY AT A PARTNER ENTERPRISE WITHIN THE SYSTEM OF PROFESSIONAL EDUCATION: CONTENT AND STRUCTURAL COMPONENTS

Abstract. The article addresses the theoretical grounding of a technical-college (texnikum) graduate's readiness for professional activity at a partner enterprise within Uzbekistan's professional education system. Using systemic, competency-based and practice-oriented approaches, the authors analyse scientific-pedagogical literature and Uzbekistan's regulatory framework (notably Presidential Decree No. PF-158 of 16 October 2024) to define readiness as an integrative professional quality comprising four interrelated components: motivational, cognitive, activity-practical and reflexive. The study substantiates the need to integrate basic vocational training with enterprise-specific practical training built on the technological processes, equipment and labour requirements of a particular partner organisation, delivered through dual education and production practice. The findings can inform the design of professional-education curricula, the assessment of graduates' occupational readiness, and closer cooperation between technical colleges and employers.

Keywords: professional education; technical college (texnikum); graduate; professionalism; readiness for professional activity; professional competence; partner enterprise; employer; dual education; production practice; motivational component; cognitive component; activity-practical component; reflexive component; labour market.

ГОТОВНОСТЬ ВЫПУСКНИКА ТЕХНИКУМА К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ПАРТНЁРСКОМ ПРЕДПРИЯТИИ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: СОДЕРЖАНИЕ И СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ

Аннотация. Статья посвящена теоретическому обоснованию готовности выпускника техникума к профессиональной деятельности на партнёрском предприятии в системе профессионального образования Узбекистана. На основе системного, компетентностного и практико-ориентированного подходов проанализированы научно-педагогическая литература и нормативно-правовая база республики (в частности, Указ Президента №ПФ-158 от 16 октября 2024 г.), что позволило определить готовность как интегративное профессиональное качество, включающее четыре взаимосвязанных компонента: мотивационный, когнитивный, деятельностно-практический и рефлексивный. Обоснована необходимость интеграции базовой профессиональной подготовки со специальной практической подготовкой, ориентированной на технологические процессы, оборудование и требования конкретного предприятия-партнёра, реализуемой через дуальное обучение и производственную практику. Результаты могут быть использованы при разработке образовательных программ, критериев оценки готовности выпускников и развитии сотрудничества техникумов с работодателями.

Ключевые слова: профессиональное образование; техникум; выпускник; профессионализм; готовность к профессиональной деятельности; профессиональная компетенция; предприятие-партнёр; работодатель; дуальное обучение; производственная практика; мотивационный компонент; когнитивный компонент; деятельностно-практический компонент; рефлексивный компонент; рынок труда.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda professional ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, yoshlarni zamonaviy kasb va mutaxassisliklarga tayyorlash hamda ularning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishdagi islohotlarning huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son) tashkil etadi [2; 9]. Ushbu hujjatlar bilan kasbiy ta'lim tashkilotlarining yagona ko'p tarmoqli texnikumlar tizimi joriy etildi va ta'lim mazmunini xalqaro standartlar hamda ish beruvchi talablariga muvofiqlashtirish vazifasi qo'yildi.

Kasbiy ta'lim agentligining rasmiy hisobotiga ko'ra, 2025-yil yakunlariga ko'ra mamlakatdagi 595 ta texnikumda (shundan 52 tasi xususiy) 329 ta kasb va mutaxassislik bo'yicha 437,8 ming nafar yosh

ta'lim oldi. Shuningdek, 17 040 ta ish beruvchi bilan hamkorlikda 67,4 ming nafar o'quvchi 140 ta kasb bo'yicha dual ta'limga jalb etildi [1]. Bu esa professional ta'limda nazariy tayyorgarlikni bevosita ishlab chiqarish amaliyoti bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan yondashuvning izchil kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

2025-yilda O'zbekistondagi texnikumlarni 141 586 nafar bitiruvchi tamomlagan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yildagi 52 872 nafarga nisbatan qariyb 2,7 barobar yuqoridir; 2025/2026-o'quv yili boshida esa texnikumlarga 143 mingdan ortiq o'quvchi qabul parametri tasdiqlangan, shundan qariyb 38,7 ming o'rin dual ta'lim shakliga ajratilgan [1; 10]. Ushbu dinamika professional ta'lim tizimining ko'lami kengayib, mamlakat mehnat bozori uchun o'rta bo'g'in va malakali ishchi kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, bitiruvchining mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat boshlashi faqat ta'lim muassasasida olgan nazariy bilimlariga emas, balki uning amaliy ko'nikmalari, kasbiy kompetensiyalari va real ishlab chiqarish muhitiga moslasha olish qobiliyatiga ham bog'liq. Xalqaro tajriba bunday tayyorgarlikning faqat ta'lim muassasasida emas, balki korxona ishtirokida, real mehnat sharoitida shakllantirilishi zarurligini ko'rsatadi [11]. Shu sababli professional ta'limda dual ta'limni kengaytirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish va ta'lim mazmunini mehnat bozori talablariga muvofiq takomillashtirish bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Maqsad. Tadqiqotning maqsadi — professional ta'lim tizimi sharoitida texnikum bitiruvchisining hamkor korxona va tashkilotlarda kasbiy faoliyatga tayyorligi tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlashtirish, uning tarkibiy tuzilmasini ilmiy asoslash hamda ta'lim dasturida mazkur tayyorgarlikni rivojlantirish imkoniyatlarini belgilashdan iborat.

Metodlar. Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlardan foydalanildi. Mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari (jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun), kasbiy standartlar, malaka talablari, o'quv reja va dasturlari tahlil qilindi; kontent-tahlil, tizimlashtirish, taqqoslash, umumlashtirish va sintez metodlaridan foydalanildi.

Natijalar. Texnikum bitiruvchisining hamkor korxonadagi kasbiy faoliyatga tayyorligi — egallagan kasbi yoki mutaxassisligiga muvofiq real ishlab chiqarish sharoitida mehnat funksiyalarini mustaqil, sifatli va samarali bajarishga tayyorlik va qobiliyatini ifodalovchi integrativ kasbiy sifat sifatida aniqlashtirildi. Uning to'rtta o'zaro bog'liq komponenti — motivatsion, kognitiv, faoliyat-amaliy va refleksiv — asoslab berildi. Shuningdek, bazaviy kasbiy tayyorgarlik bilan bir qatorda muayyan hamkor korxonaning texnologik jarayonlari, jihozlari va mehnat talablariga xos maxsus amaliy tayyorgarlikni ta'lim dasturiga integratsiya qilish zarurligi asoslandi.

Ilmiy yangilik. Tadqiqotning ilmiy yangiligi texnikum bitiruvchisining hamkor korxonadagi kasbiy faoliyatga tayyorligi mazmunining aniqlashtirilganida, uning to'rt komponentli yaxlit tarkibiy tuzilmasi nazariy jihatdan asoslanganida hamda texnikum ta'limi bilan real ishlab chiqarish muhitining o'zaro integratsiyasiga asoslangan yondashuv taklif etilganida namoyon bo'ladi.

Amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan texnikumlarda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirishda, dual ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotini mazmunan boyitishda, hamkor korxona

talablarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishda, shuningdek bitiruvchilarning kasbiy tayyorlik darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot maqsadi —professional ta'lim tizimida texnikum bitiruvchisining hamkor korxona va tashkilotlarda kasbiy faoliyatni mustaqil va samarali amalga oshirishga tayyorligini ifodalovchi tushunchaning mazmunini ilmiy jihatdan aniqlashtirish, uning tarkibiy komponentlari va shakllanish mezonlarini belgilash hamda texnikum ta'lim jarayonida mazkur sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta'lim dasturi mazmuni va pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqishdan iborat.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi tadqiqot vazifalari hal etiladi: 1) O'zbekiston professional ta'lim tizimi kontekstida texnikum bitiruvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorligini aniqlashga doir mavjud ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlarni tahlil qilish; 2) texnikum bitiruvchisining hamkor korxonada kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorligining mazmuni, tarkibiy komponentlari va asosiy mezonlarini aniqlash hamda ilmiy asoslash; 3) professionalitetni shakllantirish sharoitida ushbu tayyorgarlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta'lim dasturining asosiy elementlari, pedagogik shart-sharoitlari va amalga oshirish mexanizmlarini belgilash.

METODLAR

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etdi. Tizimli yondashuv texnikum bitiruvchisining hamkor korxonadagi kasbiy faoliyatga tayyorligi tushunchasining mazmunini aniqlash hamda uning tarkibiy komponentlarini belgilashda qo'llanildi. Kompetensiyaviy yondashuv bitiruvchining kasbiy kompetensiyalari, amaliy ko'nikmalari va shaxsiy-kasbiy sifatlarini aniqlash hamda ularni professionalitetni shakllantirish mazmuni bilan bog'lashga xizmat qildi. Amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv texnikum ta'limini ishlab chiqarish amaliyoti va dual ta'lim bilan uyg'unlashtirish, bitiruvchining real mehnat sharoitlariga tayyorgarligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda quyidagi manbalar tahlil qilindi: L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev, B.F. Lomovning faoliyat nazariyasiga oid asarlari [4; 5; 6]; M.I. Dyachenko va L.A. Kandыbovichning kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlik tushunchasiga bag'ishlangan tadqiqoti [7]; V.A. Slastenin tahriri ostidagi pedagogik tayyorgarlik komponentlariga oid o'quv adabiyoti [8]; O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Prezidentning PF-158-son Farmoni [2; 9]; kasb va mutaxassisliklar bo'yicha malaka talablari, kasbiy standartlar, texnikumlarning o'quv rejalari va ta'lim dasturlari. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlashda kontent-tahlil, tizimlashtirish, taqqoslash, umumlashtirish va sintez metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Faoliyat", "kasbiy faoliyat" va "kasbiy faoliyatga tayyorlik" tushunchalari

"Texnikum bitiruvchisining hamkor korxona va tashkilotlarda kasbiy faoliyatga tayyorligi" tushunchasining mazmunini aniqlashtirish maqsadida, avvalo, "faoliyat", "kasbiy faoliyat" va "kasbiy faoliyatga tayyorlik" kabi asosiy kategoriyalarning mazmunini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

"Faoliyat" tushunchasi psixologiya va pedagogika fanlarida insonning atrof-muhit bilan faol o'zaro munosabatini ifodalovchi fundamental kategoriyalardan biri sifatida qaraladi. L.S. Vigotskiy inson psixik rivojlanishida faoliyat va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siriga alohida e'tibor qaratgan [4]. A.N. Leontyev faoliyatni insonning ijtimoiy muhit bilan munosabati va uning maqsadga yo'naltirilgan amaliy harakatlari bilan bog'laydi [5]. B.F. Lomov faoliyatning individual va jamoaviy shakllarini ajratib, uning shaxs rivojlanishidagi ahamiyatini asoslagan [6]. Mazkur nazariy yondashuvlarni umumlashtirgan holda, tadqiqotimizda faoliyat insonning muayyan maqsadga erishishga qaratilgan, ongli va ijtimoiy jihatdan shartlangan amaliy harakatlari tizimi sifatida talqin qilinadi.

Kasbiy faoliyat — faoliyatning muayyan kasb yoki mutaxassislik doirasida amalga oshiriladigan, tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni talab qiladigan shaklidir. Uning mazmuni muayyan kasbning mehnat funksiyalari, texnologik jarayonlari, kasbiy standartlari hamda ish beruvchi tomonidan qo'yiladigan talablar bilan belgilanadi. Professional ta'lim tizimida ushbu masala alohida ahamiyat kasb etadi, chunki texnikum bitiruvchisining tayyorgarligi faqat ta'lim muassasasida egallangan nazariy bilimlar bilan cheklanmay, real ishlab chiqarish sharoitida kasbiy vazifalarni mustaqil va samarali bajarish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotimizda texnikum bitiruvchisining kasbiy faoliyati — uning egallagan kasbi yoki mutaxassisligiga muvofiq mehnat funksiyalarini, texnologik jarayonlarni va kasbiy vazifalarni belgilangan talablar asosida mustaqil va sifatli bajarishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida tushuniladi.

Hamkor korxonaning roli

Professional ta'limning zamonaviy modelida ta'lim muassasasi va ish beruvchi o'rtasidagi hamkorlik bitiruvchining kasbiy tayyorgarligini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. PF-158-son Farmon bilan belgilangan islohotlar doirasida ham hamkor korxonalarning ta'lim jarayoniga faol jalb etilishi ustuvor vazifa sifatida ko'rsatilgan [2]. Ayniqsa, dual ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti va ish beruvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki texnikumda shakllantiriladigan bilim va ko'nikmalarning real mehnat bozori talablariga muvofiqligini ta'minlash imkonini beradi.

Shu sababli, tadqiqot doirasida "hamkor korxona" tushunchasi ostida texnikum bilan o'zaro hamkorlik qiluvchi, o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyoti, dual ta'limi va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida ishtirok etuvchi hamda bitiruvchilarga qo'yiladigan amaliy va kasbiy talablarni belgilashda manfaatdor bo'lgan tashkilot yoki korxona tushuniladi. Hamkor korxonaning ta'lim jarayonidagi ishtiroki bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi: o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish, dual ta'limni amalga oshirish, amaliy mashg'ulotlarni real ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash, kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablarni shakllantirish, zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish hamda bitiruvchilarni ishga qabul qilish. Shu jihatdan, texnikum bitiruvchisining hamkor korxonadagi kasbiy faoliyati korxonaning texnologik xususiyatlari, ishlab chiqarish jarayoni, mehnat sharoitlari va mazkur kasb yoki mutaxassislik bo'yicha mavjud mehnat funksiyalarini bajarish bilan bog'liq faoliyat sifatida qaraladi.

Kasbiy faoliyatga tayyorlik tushunchasi

Kasbiy faoliyatga tayyorlik shaxsning muayyan mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma, kompetensiya, motivatsiya va shaxsiy-kasbiy sifatlarning yaxlit tizimi sifatida talqin qilinadi. M.I. Dyachenko va L.A. Kandыbovichning klassik tadqiqotida faoliyatga psixologik tayyorlik motivatsion, kognitiv, operatsion (amaliy) va emotsional-irodaviy tarkibiy qismlar birligi sifatida ko'rib chiqiladi [7]; V.A. Slastenin tahririda esa kasbiy tayyorgarlik nazariy va amaliy tayyorgarlikning uyg'unligi sifatida talqin etiladi [8]. Bunday yondashuv texnikum bitiruvchisining faqat nazariy bilimlarini emas, balki ularni real ishlab chiqarish sharoitida qo'llay olish qobiliyatini ham hisobga olish imkonini beradi.

Professional ta'lim tizimi sharoitida bu masala ayniqsa muhimdir, chunki zamonaviy ish beruvchi bitiruvchidan faqat diplom yoki nazariy bilimni emas, balki kasbiy vazifalarni mustaqil bajarish, ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish, mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish, jamoada ishlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va yangi texnologiyalarga moslashish kabi ko'nikmalarni ham talab qiladi. Shu asosda tadqiqotimizda kasbiy faoliyatga tayyorlik — texnikum bitiruvchisining egallagan kasbi yoki mutaxassisligiga muvofiq mehnat funksiyalarini samarali bajarishini ta'minlovchi motivatsion, kognitiv, amaliy va shaxsiy-kasbiy sifatlarning integrallashgan majmui sifatida belgilanadi.

Professionalitet sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlik

Professionalitetga yo'naltirilgan professional ta'limning asosiy vazifalaridan biri — ta'lim oluvchini faqat muayyan kasbga o'rgatish emas, balki real mehnat faoliyatiga tayyor, mustaqil qaror qabul qila oladigan, kasbiy vazifalarni sifatli bajaradigan va mehnat bozori o'zgarishlariga moslasha oladigan mutaxassisni shakllantirishdan iborat. Bunday sharoitda texnikum va hamkor korxona o'rtasidagi uzviy hamkorlik alohida ahamiyatga ega: ta'lim mazmunining ishlab chiqarish talablari bilan uyg'unligi, amaliy mashg'ulotlarning real texnologik jarayonlar asosida tashkil etilishi, dual ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotining keng qo'llanilishi bitiruvchining kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirishning muhim pedagogik shartlari hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, professionalitet sharoitida texnikum bitiruvchisining hamkor korxonadagi kasbiy faoliyatga tayyorligi deganda uning egallagan kasbi yoki mutaxassisligiga muvofiq hamkor korxonaning real ishlab chiqarish sharoitida mehnat funksiyalarini mustaqil, samarali va sifatli bajarishga bo'lgan motivatsiyasi, bilimlari, amaliy ko'nikmalari, kasbiy kompetensiyalari hamda shaxsiy-kasbiy sifatlarining yaxlit holati tushuniladi.

Tayyorlikni shakllantirish jarayoni

Texnikum bitiruvchisining kasbiy faoliyatga tayyorligi o'z-o'zidan shakllanmaydi. U ta'lim jarayonining mazmuni, pedagogik texnologiyalar, amaliy mashg'ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti, dual ta'lim va ish beruvchilar bilan hamkorlikning o'zaro uyg'unligi natijasida rivojlanadi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotimizda professionalitet sharoitida texnikum bitiruvchisining hamkor korxonadagi kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirish — bu texnikum va hamkor korxonaning o'zaro hamkorligi asosida bitiruvchida kasbiy bilim, amaliy ko'nikma, kompetensiya, kasbiy motivatsiya va mehnat

muhitiga moslashish qobiliyatini maqsadli rivojlantirish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Mazkur jarayonda ta'lim mazmuni hamkor korxonaning real ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirilishi, o'quvchilarga ishlab chiqarish muhitida amaliy tajriba orttirish imkoniyati yaratilishi va kasbiy kompetensiyalarning amaliy faoliyat orqali rivojlantirilishi muhim ahamiyatga ega.

Tayyorgarlikning tarkibiy komponentlari

Nazariy tahlil dastlabki bosqichda tayyorgarlikning beshta mumkin bo'lgan tarkibiy unsurini — motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyat, kommunikativ va shaxsiy-kasbiy sifatlarni — ko'rsatdi. Biroq keyingi tahlil shuni ko'rsatdiki, texnikum bitiruvchisi — hamkor korxona kontekstida kommunikativ jihatlar (jamoada ishlash, hamkasblar va rahbarlar bilan muloqot) amalda motivatsion komponent tarkibida, shaxsiy-kasbiy sifatlar (mustaqillik, mas'uliyat, moslashuvchanlik) esa refleksiv komponent tarkibida integrativ tarzda namoyon bo'ladi va alohida mezon sifajida ajratish tadqiqot mantig'ini ortiqcha murakkablashtiradi. Shu sababli, O'zbekiston professional ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tadqiqotimiz doirasida texnikum bitiruvchisining hamkor korxona va tashkilotlarda kasbiy faoliyatga tayyorligi to'rtta o'zaro bog'liq komponent orqali ifodalandi: motivatsion, kognitiv, faoliyat-amaliy va refleksiv.

Motivatsion komponent bitiruvchining egallagan kasb yoki mutaxassisligiga ijobiy munosabati, kasbiy faoliyatni amalga oshirishga ichki ehtiyoji va intilishi, tanlagan kasbi bo'yicha rivojlanishga bo'lgan qiziqishi, mehnat natijasiga mas'uliyatli munosabati hamda professional rivojlanishga tayyorligini ifodalaydi. Mazkur komponent, shuningdek, ishlab chiqarish muhitida mustaqil ishlash, jamoa bilan hamkorlik qilish, belgilangan vazifalarni sifatli bajarish va kasbiy natijalarga erishishga bo'lgan intilishni ham qamrab oladi.

Kognitiv komponent texnikum bitiruvchisining egallagan kasbi yoki mutaxassisligi bo'yicha zarur nazariy bilimlar tizimini, ishlab chiqarish texnologiyalari va jarayonlarini tushunishini, mehnat xavfsizligi va texnika xavfsizligi talablarini bilishini, asbob-uskunalar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslarini egallaganligini ifodalaydi. Ushbu komponent bitiruvchining hamkor korxonadagi muayyan mehnat funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilimlarni real ishlab chiqarish vazifalari bilan bog'lay olish imkoniyatini ham nazarda tutadi.

Faoliyat-amaliy komponent bitiruvchining o'zlashtirilgan bilimlarni real ishlab chiqarish sharoitida qo'llay olish qobiliyatini tavsiflaydi. U kasbiy vazifalarni mustaqil bajarish, texnologik jarayonlarga rioya qilish, ishlab chiqarish jihozlari va vositalaridan to'g'ri foydalanish, mehnat xavfsizligi talablarini amalda qo'llash, yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni kasbiy bilimlar asosida hal etish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Mazkur komponent ayniqsa ishlab chiqarish amaliyoti va dual ta'lim jarayonida shakllanadi hamda texnikumda olingan nazariy bilimlarning real kasbiy faoliyatga transformatsiyalanishini ta'minlaydi.

Refleksiv komponent bitiruvchining o'z kasbiy faoliyatini anglash, bajarilgan ishlarning natijalarini tahlil qilish, o'zining kuchli va rivojlantirilishi lozim bo'lgan jihatlarini aniqlash, xatolarini baholash va faoliyatiga zarur tuzatishlar kiritish qobiliyatini ifodalaydi. Shuningdek, u kasbiy faoliyat natijalarini mustaqil baholash, ish beruvchi va rahbarlarning fikr-mulohazalarini qabul qilish hamda ular asosida o'z kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga tayyorlikni ham qamrab oladi.

Shunday qilib, mazkur komponentlarning o'zaro bog'liqligi "kasbga qiziqish va intilish → kasbiy bilim → amaliy faoliyat → o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish" izchilligini yuzaga keltiradi.

Bu esa texnikum bitiruvchisining kasbiy faoliyatga tayyorligini alohida bilim yoki ko'nikma emas, balki integrativ kasbiy sifat sifatida baholash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Texnikum bitiruvchisining hamkor korxonadagi kasbiy faoliyatga tayyorligining tarkibiy komponentlari

Komponent	Asosiy mazmuni	Asosiy ko'rsatkichlari (baholash mezonlari)
Motivatsion	Kasbga qiziqish, kasbiy faoliyatga ichki intilish, mehnat natijasiga mas'uliyatli munosabat	Kasbga ijobiy munosabat; mas'uliyatlilik; kasbiy rivojlanishga intilish; jamoada ishlashga tayyorlik
Kognitiv	Kasb bo'yicha nazariy bilimlar, texnologik jarayonlar va mehnat xavfsizligi talablarini bilish	Texnologiya va jihozlarni bilish; mehnat xavfsizligi qoidalarini bilish; kasbiy standart talablarini bilish
Faoliyat-amaliy	Egallangan bilimlarni real ishlab chiqarish sharoitida mustaqil qo'llay olish	Amaliy ko'nikma darajasi; mustaqil ishlash qobiliyati; texnologik jarayonni bajarish; muammoli vaziyatni hal qilish
Refleksiv	O'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish qobiliyati	O'z-o'zini baholash; xatolarni aniqlash; fikr-mulohazani qabul qilish; tuzatish kiritish qobiliyati

HAMKOR KORXONANING TALABLARINI TA'LIM MAZMUNIGA INTEGRATSIYA QILISH

Texnikum bitiruvchisining kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirishda muhim masalalardan biri — ta'lim mazmunining real mehnat bozori va hamkor korxonalar ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlashdir. O'zbekiston professional ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, xususan PF-158-son Farmon bilan belgilangan islohotlar, ta'lim muassasasi va ish beruvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni talab qilmoqda [2]. Bunda korxona faqat bitiruvchini ishga qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki kasbiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablarni shakllantirish, amaliy ta'limni tashkil etish va o'quvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotimizda hamkor korxona deganda texnikum bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'ygan, o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyoti va dual ta'limini tashkil etishda ishtirok etadigan, kasb va mutaxassisliklar bo'yicha amaliy talablarni shakllantirishga hissa qo'shadigan hamda bitiruvchining mehnat faoliyatiga tayyorlanishidan manfaatdor bo'lgan tashkilot tushuniladi. Hamkor korxonaning bunday ishtiroki ta'lim dasturini real ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish, o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash tajribasini berish va texnikum bitiruvchisining ish joyiga moslashish davrini qisqartirish imkonini beradi.

TA'LIM DASTURIDA KASBIY TAYYORGARLIKNI SHAKLLANTIRISH

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, texnikum bitiruvchisining hamkor korxonadagi kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirish uchun ta'lim dasturining mazmuni faqat umumiy nazariy tayyorgarlik bilan cheklanmasligi kerak. Unda kasbiy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lovchi, muayyan ishlab chiqarish sharoitlariga moslashtirilgan va ish beruvchining real talablarini aks ettiruvchi ta'lim komponentlari mavjud bo'lishi zarur. O'zbekiston sharoitida bunday mazmunni shakllantirishda quyidagi manbalarni o'zaro uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq: tegishli kasb va mutaxassislik bo'yicha malaka talablari; kasbiy standartlar va ish beruvchilarning talablaridan kelib chiqadigan mehnat funksiyalari; texnikumning o'quv rejasi va ta'lim dasturi; ishlab chiqarish va texnologik amaliyot mazmuni; dual ta'lim jarayonida bajariladigan amaliy vazifalar; hamkor korxonaning texnologik jarayonlari va zamonaviy ishlab chiqarish talablari; mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi talablari; bitiruvchining mustaqil kasbiy faoliyatini ta'minlovchi kompetensiyalar. Bunday yondashuv natijasida ta'lim dasturida "texnikumda o'rganiladigan bilim" va "korxonada bajariladigan real mehnat faoliyati" o'rtasidagi tafovut kamayadi.

O'zbekiston sharoitida ta'lim dasturining ikki yo'nalishi

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, texnikum bitiruvchisining hamkor korxonadagi kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirish uchun ta'lim dasturida mazmunan bir-birini to'ldiruvchi ikki asosiy yo'nalishni ajratish mumkin. Birinchi yo'nalish — bazaviy kasbiy tayyorgarlik. U bitiruvchining tanlagan kasbi yoki mutaxassisligi bo'yicha zarur bo'lgan fundamental bilim, umumkasbiy va maxsus kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratiladi: o'quvchi kasbning nazariy asoslarini, texnologik jarayonlarni, mehnat vositalari va jihozlardan foydalanish qoidalarini, mehnat xavfsizligi talablarini hamda kasbiy vazifalarni bajarish algoritmlarini o'zlashtiradi. Ikkinchi yo'nalish — ish beruvchi va ishlab chiqarishning o'ziga xos talablariga yo'naltirilgan tayyorgarlik. Mazkur yo'nalish muayyan hamkor korxonaning texnologik jarayonlari, foydalaniladigan uskunalari, ishlab chiqarish madaniyati, mehnatni tashkil etish shakllari va konkret mehnat funksiyalarini hisobga olishga qaratiladi; bu qismda dual ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti, korxona mutaxassislari ishtirokidagi mashg'ulotlar va real ishlab chiqarish topshiriqlaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Mazkur ikki yo'nalishning uyg'unligi natijasida umumiy kasbiy tayyorgarlikdan konkret ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlikka o'tish ta'minlanadi.

Muhim ilmiy xulosa

Shunday qilib, tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, professionalitet sharoitida texnikum bitiruvchisining hamkor korxonadagi kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirish ta'lim dasturining umumiy kasbiy mazmuni va muayyan ishlab chiqarishning o'ziga xos talablarini integratsiyalash asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda ta'lim dasturining birinchi qismi bitiruvchida bazaviy kasbiy kompetensiyalarni, ikkinchi qismi esa muayyan ish beruvchi va ishlab chiqarish muhitida talab qilinadigan maxsus amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada texnikum bitiruvchisining professionaliteti faqat "nimani bilishi" bilan emas, balki "ishni qanday bajara olishi",

"real ishlab chiqarish sharoitida qanday qaror qabul qilishi" va "o'z faoliyatini qanday tahlil qilib takomillashtirishi" bilan belgilanadi. Shu jihatdan, motivatsion, kognitiv, faoliyat-amaliy va refleksiv komponentlarning yaxlitligi texnikum bitiruvchisining hamkor korxonadagi kasbiy faoliyatga real tayyorligining asosiy mezoni sifatida qaralishi mumkin.

XULOSA

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, texnikum bitiruvchisining hamkor korxonadagi kasbiy faoliyatga tayyorligi ta'lim muassasasida berilgan nazariy bilimlarning oddiy yig'indisi emas, balki motivatsion, kognitiv, faoliyat-amaliy va refleksiv komponentlarning o'zaro integratsiyasi natijasida shakllanadigan yaxlit kasbiy sifatdir. Ushbu tayyorlikni samarali shakllantirish uchun "texnikum — o'quvchi — hamkor korxona — mehnat bozori" o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlash zarur. Bunda ta'lim mazmuni ish beruvchi ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirilishi, dual ta'lim va ishlab chiqarish amaliyoti imkoniyatlaridan keng foydalanilishi, o'quvchilarning real mehnat vazifalarini bajarishiga sharoit yaratilishi hamda ularning kasbiy rivojlanishini muntazam baholab borish mexanizmlari joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Demak, professionalitetga yo'naltirilgan texnikum ta'limining asosiy natijasi — diplomga ega bo'lgan bitiruvchini emas, balki o'z mutaxassisligi bo'yicha real ishlab chiqarish sharoitida mustaqil ishlay oladigan, kasbiy vazifalarni sifatli bajaradigan, mehnat jamoasiga moslasha oladigan va o'z kasbiy faoliyatini doimiy ravishda rivojlantirib boradigan raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlashdan iborat.

Kelgusida mazkur tadqiqot yo'nalishini rivojlantirish uchun texnikum bitiruvchisining kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirishning strukturaviy-funksional modelini ishlab chiqish, uning samarali shakllanishini ta'minlovchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, har bir komponent bo'yicha aniq mezon, ko'rsatkich va rivojlanish darajalarini (past, o'rta, yuqori) ishlab chiqish, shuningdek taklif etilayotgan modelning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali empirik tekshirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kasbiy ta'lim agentligining 2025-yil yakunlariga oid rasmiy hisoboti. — Manba: gov.uz/oz/kasbiytalim rasmiy sahifasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-son qarori.
4. Выготский Л.С. Собрание сочинений: в 6 т. — М.: Педагогика, 1982–1984.
5. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. — М.: Политиздат, 1975.
6. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. — М.: Наука, 1984.

7. Дьяченко М.И., Кандыбович Л.А. Психологические проблемы готовности к деятельности. — Минск: Изд-во БГУ, 1976.
8. Сластенин В.А. и др. Педагогика: учеб. пособие. — М.: Академия (Fedorov, V. A., & Saveleva, M. A. (2025). The formation of college graduates' readiness for professional activity at a partner enterprise within the professionalitet framework: A conceptual perspective. Vocational Education and Labour Market, 13(1), 22–37. (In Russ.) https://doi.org/10.52944/PORT.2025.60.1.0029. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
9. My.edu.uz — 2025/2026 va 2026/2027-o'quv yillari uchun texnikumlarga qabul parametrlari to'g'risidagi rasmiy e'lonlar.
10. Germaniya Federal kasb-hunar ta'limi instituti (Bundesinstitut für Berufsbildung, BIBB) hamda Germaniya Federal ta'lim va tadqiqotlar vazirligining (BMBF) dual ta'lim tizimiga oid rasmiy ma'lumotlari.